

**“ MUQOBILSIZ LEKSIKA ” TUSHUNCHASI VA UNING VUJUDGA KELISH  
SABABLARI**

**Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi**  
*Urganch davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada “ Muqobilsiz leksika ” tushunchasi, u haqida izlanishlar olib borayotgan olimlar va uning vujudga kelish sabablari haqida ma’lumot berilib, misollar bilan tahlil qilingan hamda muqobilsiz leksikaga til qatlamining qaysi birliklari mansubligi, iboralarning to’g’ridan to’g’ri boshqa tillarga tarjima qilinmasligi haqida ham fikr yuritilgan.*

**Аннотация:** *В данной статье представлена информация о понятии «Лексикс безальтернативен», ученых, проводящих его исследования, и причинах его возникновения, проанализирована на примерах, а также какие единицы языкового пласта относятся к безальтернативной лексике, прямота выражений. Также считается, что его не следует переводить на другие языки.*

**Annotation:** *In this article, information is provided about the concept of "Lexix without an alternative", scientists conducting research on it and the reasons for its emergence, analyzed with examples, and which units of the language layer belong to the lexicon without an alternative, the directness of expressions It is also thought that it should not be translated into other languages.*

**Kalit so’zlar:** *muqobilsiz leksika, til birligi, argo, jargon, mahalliy dialekt, taqlidiy so’zlar, undov so’zlar, arxaizmlar, frazeologizmlar, ko’chma ma’nodagi maqol va matallar.*

**Ключевые слова:** *безальтернативная лексика, языковая единица, сленг, местный диалект, подражательные слова, междометия, архаизмы, фразеологизмы, образные пословицы и поговорки.*

**Key words:** *non-alternative lexicon, language unit, slang, local dialect, imitation words, interjections, archaisms, phraseologisms, figurative proverbs and proverbs.*

Ma’lumki, tillar orasida o’zaro tafovutlar mavjud bo’ladi va ular madaniyatlarning farqliligi natijasida yuzaga keladi. Tilning leksik va frazeologik qatlamida ko’p farqlar ko’zga tashlanadi, ya’ni, iboralarning yoki boshqa millat madaniyatiga xos bo’lmagan va u xalqda mavjud bo’lmagan leksemalarning yana bir tilde ekvivalenti mavjud bo’lmaydi.

Har qanday til yoki dialektda boshqa tilga bir so’z bilan tarjima qilib bo’lmaydigan so’zlar mavjud bo’ladi. Ya’ni asliyat tilidagi ayrim leksik birliklar tarjima tilining leksik tarkibida uchramaydi, ularning o’xshashi bo’lmaydi. Bunday so’zlarga muqobilsiz( lot. aequus- teng, muqobil + valens- qiymat) leksika deyiladi<sup>2</sup>.

<sup>2</sup> Usmonova S. Lingvomadaniyatshunoslik. –T.: Bookmany print, 2022. –B. 94.

Muqobilsiz leksika biror xalqning milliy madaniyatiga xos bo'lgan hodisa, urf-odatlar asosida paydo bo'ladi va madaniyatni tilda aynan aks ettiradi. Bunday leksika, asosan, mahalliy xalqqa xos bo'lgan, ichki turmush tarzida ishlatiladigan buyumlar, kiyim-kechaklar, ovqat-pishiriqlar yoki ichimliklar tushunchalarini anglatadigan so'zlardan iborat bo'ladi.

“Muqobilsiz leksika” tushunchasi 20- asrdan buyon lingvokuturologiya fanining ildizlaridan biri sifatida turli olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Bu tushunchani ilk bora ilmiy muomalaga tadqiqotchilar Ye.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarovlar tomonidan kiritilgan.

Muqobilsiz leksika boshqa madaniyat va tilde avjud bo'lmagan tushunchalarni ifodalovchi so'zlar, ya'ni faqat muayyan madaniyatgagina xos bo'lgan madaniyat unsurlari, shuningdek, boshqa tilde tarjimasini bo'lmagan, bir so'z bilan aytganda, o'zi taalluqli bo'lgan tildan tashqarida muqobili bo'lmagan so'zlardir<sup>3</sup>.

Bundan tashqari mashhur tilshunoslar Barxudarov, Shveyser, Fedorov, Retsker, Komissarov, Nelyubin, Ivanov kabi olimlar muqobilsiz leksika bo'yicha taqiqot ishlarini olib borganlar.

Muqobilsiz leksikaga ko'pincha taqlidiy so'zlar, undov so'zlar, subyektiv baho shakliga ega bo'lgan suffiksli so'zlar, abreviaturalar (qisqartma so'zlar), hududiy dialektlar, argo, jargonlar va arxaizmlar, shuningdek frazeologizmlar, ko'chma ma'nodagi maqol va matallar kabi tilning madaniyatga aloqador bo'lgan birliklari kiradi.

Muqobilsiz leksikaning vujudga kelishida bir necha asosli sabablar mavjud bo'lib, ulardan birinchisi xalqlarning turmush tarzida foydalaniladigan biror predmetning yoki hodisaning boshqa bir xalq tilida mavjud emasligidir. Jumladan, bunday muqobilsiz leksikaga misol sifatida *Xiva cho'girmalarini* yoki *o'zbek oshini* misol qilish mumkin. Xivada *qo'y junlaridan tikiladigan cho'girmalar* boshqa bir xalqlarda yo'q va shuning uchun bu tushuncha ham leksikasida mavjud emas. Binobarin, *o'zbek oshi* o'zbek xalqining milliy taomi bo'lib, aynan shunday tayyorlanadigan ovqat ayrim xalqlarda mavjud emasligi natijasida bu tushuncha o'sha xalq tilining muqobilsiz leksikasiga mansub bo'ladi. Boshqa millatlar ichki madaniyatida mavjud, ammo bizning xalqimizda mavjud bo'lmagan tushuncha va hodisalar esa bizning tilimizning muqobilsiz leksika qatlamiga mansub bo'ladi, albatta.

Muqobilsiz leksikaning vujudga kelishining keyingi sababi esa tarjima tilida biror bir tushunchaning mavjud bo'lmasligidir, ya'ni boshqa tilga tarjima qilinayotgan jumlaning ma'nosi yana boshqa tilda o'zgarib ketishi va to'g'ri mazmun bermasligidir. Masalan, *ilonning yog'ini yalagan* frazeologizmini ingliz tiliga o'girsak, *licked the fat of the snake* deb tarjima qilinadi va bunda ma'no biz istagandek bo'lmaydi, chunki bu bizning madaniy iboramiz bo'lib, *ayyor*, *mug'ambir* ma'nolarini beradi va uni boshqa tillarga o'girmoqchi bo'lganda, iboraga sinonim ma'noni beruvchi so'zlardan foydalanish o'rinli

<sup>3</sup> Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова, –М: Русский язык, 1980 –С. 53.

bo'ladi. Misol uchun ingliz tiliga *ilonning yog'ini yalagan* iborasini *artful* yoki *cunning*, ya'ni *ayyor, makkor* so'zlari orqali tarjima qilamiz.

Muqobilsiz leksika vujudga kelishining keyingi sababi sifatida leksik-semantik tasniflardagi farqlar, ya'ni stilistik muqobilsizlikni keltirish mumkin. Bunda funksional bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar, biror uslubga xoslangan so'zlarning biror uslubda qo'llanadigan sinonimining boshqa tilda mavjud bo'lmasligidir. Masalan, *xotin* so'zining so'zlashuv uslubiga, shunday ma'noni beruvchi *jufti halol* so'zining esa badiiy uslubga xosligi, aynan shu so'z rasmiy-idoraviy uslubda *rafiqa* tarzida faolligi hammamizga ma'lum. Ammo bu so'z ingliz tiliga o'girilganda faqat *spouse* yoki *wife* deb tarjima qilinadi va bu sinonimik qatorning hammasi uchun umumiy. Buning natijasida funksional bo'yoqdor so'zlar orqali muqobilsiz leksikalar vujudga kelgan.

Bir necha mavhum otlarni o'zbek tiliga tarjiam qilganimizda ham muqobilsiz leksikalar ko'zga tashlanadi. *Insof* oti ingliz tiliga *honesty* deb tarjima qilinib, *adolat* degan ma'noni ham anglatadi. Jumladan, *I appreciate your honesty* ( *Men sening insofliligingni qadrlayman*) gapida *honesty* so'zi o'zbek tilidagi *vijdon, insof, diyonat, halollik* so'zlari uchun umumiy bo'lsa, *She answered all my questions with her usual honesty* ( *U mening barcha savollarimga adolat bilan javob berdi*) gapida esa *to'g'riso'zlik, samimiylilik, adolat* kabi ma'nolarda tarjima qilinadi. Buning natijasida funksional bo'yoqdor so'zlar orqali muqobilsiz leksikalar vujudga kelgan.

Shunday qilib, muqobilsiz leksika boshqa madaniyat va tilda mavjud bo'lmagan tushunvhalarni ifodalaydi va u tarjima tilida muqobiliga ega bo'lmaydi. Ularda muayyan madaniyatga xos bo'lgan milliy-madaniy unsurlar mavjud bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonova Sh. Tarjimaning lingvomadniy aspektlari. Darslik. –Toshkent: TDSHI, 2017. -256.
2. Usmonova S. Lingvomadaniyatshunoslik. –T.: Bookmany print, 2022. –B. 94.
3. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова, –М: Русский язык, 1980 –С. 53.